



**ANDIJON VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**
*2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



Xususiy korxona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-iyun oylarida 4 583 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 3 233 ta, oilaviy korxonalar – 1 075 ta, xususiy korxonalar – 172 ta, muassasalar – 47 ta va boshqalar – 56 ta tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




14,7
foizga oshdi



Mikrofimalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




24,0
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




2,3
martaga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
25,0 foizga oshdi



Xususiy korxonalar



2019- y.

604


2020- y.

434


28,1
foizga kamaydi




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi (1- iyul holatiga ko'ra)



- Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 7 758 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 122,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 103,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 116,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 98,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o'sishidir.

Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,7** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




21,6 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



19,0 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




3,3 marta oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **13,3** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



14,2 foizga kamaydi




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,7** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




10,6 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




20,9 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,9 martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **50,0** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




23,1 foizga kamaydi



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 960 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – fuqarolik obyektlarini qurish – 161,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 149,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 28,8 %) o'sishidir.


Bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 95,7 % ni (jami qurilishdagi ulushi 63,3 %) tashkil etadi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 9 166 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 117,4 % ga (jami savdodagi ulushi 66,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 143,4 % ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 99,5 % ni (jami savdodagi ulushi 26,8 %) tashkil etadi.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,3** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




18,5 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlari




26,0 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




36,4 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **5,0** martaba oshdi



Xususiy korxonalar



3,2 foizga kamaygan



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

784



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

6



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



117

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 600

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 717 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,0 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 117,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,2 %), yashash bo'yicha xizmatlar – 2,3 martaga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,0** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




20,9 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




19,6 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




3,5 martaba oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **28,6** foizga oshdi




Xususiy korxonalar



19,4 foizga kamaygan



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 520 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,2 % ni tashkil qiladi.

Jami axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonidan, noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 95,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,3 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 97,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,5 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 82,8 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,6 %), aloqa xizmatlari – 85,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 43,5 %) tashki etadi.

Axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 110,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,2 %), dasturlar tuzish va teleradio-eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 125,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,9 %) o'sgan.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 10- yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17- son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.

IT-PARK maqsadi:

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;


-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startup-loyihalar"ni har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,8** foizga kamaygan




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




6,6
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




2,4
martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
33,3 foizga oshdi




Xususiy korxonalar



32,7
foizga kamaygan



Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra 2 594 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 902 taga yoki 3,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 360 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 697 taga yoki 3,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 075 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 975 taga yoki 10,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra 23 424 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 576 taga yoki 124,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 515 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 231 taga yoki 117,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 233 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 344 taga yoki 111,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra 344 tani tashkil etib, ulardan 324 tasi yoki 94,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 76 taga yoki 128,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 26 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	12 218	14 011	14 557	18 284	21 515
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	908	1 003	996	1 124	1 394
Sanoat	2 873	3 350	3 671	4 662	5 549
Qurilish	1 477	1 565	1 604	2 043	2 469
Savdo	3 571	4 382	4 321	5 591	6 697
Tashish va saqlash	668	741	868	1 062	1 136
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	672	753	758	910	1 088
Axborot va aloqa	211	272	261	317	338
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	196	229	339	446	562
Boshqa turlar	1 642	1 716	1 739	2 129	2 282

**Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Mamlakatlar	Jami	shundan:	
			qo'shma korxona	xorijiy korxona
1	 Rossiya Federatsiyasi	70	37	33
2	 Qirg'iz Respublikasi	34	16	18
3	 Qozog'iston Respublikasi	7	3	4
4	 Belarus Respublikasi	6	4	2
5	 Ozarbayjon Respublikasi	4	1	3
6	 Ukraina Respublikasi	3	0	3
7	 Turkmaniston Respublikasi	1	1	0
8	 Tojikiston Respublikasi	1	0	1

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	138	159	189	260	324
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	5	9	20	25
Sanoat	105	121	142	166	188
Qurilish	5	8	7	14	21
Savdo	9	7	16	27	39
Tashish va saqlash	3	3	2	2	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	6	7	9
Axborot va aloqa	0	0	0	3	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	1	1	5
Boshqa turlar	6	7	6	20	30

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	324	174	150
Oltinko'l	17	12	5
Andijon	25	19	6
Baliqchi	8	2	6
Bo'ston	8	5	3
Buloqboshi	11	6	5
Jalolquduq	10	6	4
Izboskan	8	5	3
Ulug'nor	6	4	2
Qo'rg'ontepa	7	5	2
Asaka	18	11	7
Marhamat	14	6	8
Shahrixon	25	10	15
Paxtaobod	7	3	4
Xo'jaobod	15	10	5
Andijon sh.	128	60	68
Xonobod sh.	17	10	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 128 ta (jamidagi ulushi 39,5 %), Andijon va Shahrixon tumanlarida 25 tadan (7,7 %) tashkil etgan. Eng kam Ulug'nor 6 ta (1,9 %), Paxtaobod, Qo'rg'ontepa tumanlarida 7 tadan (2,2 %), Baliqchi, Bo'ston, Izboskan tumanlarida 8 tadan (2,5 %) hamda Jalolquduq tumanida 10 tani (3,1 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Andijon shahri (31,7 %), Asaka (9,0 %), Shahrixon (7,1 %), Andijon (7,1 %), Qo'rg'ontepa (5,1 %), Oltinko'l (5,1 %), Izboskan (4,9 %), Baliqchi (4,8 %), Marhamat (4,6 %), Jalolquduq (4,0 %), Paxtaobod (3,6 %), Xo'jaobod (3,5 %), Buloqboshi (2,9 %), Bo'ston (2,8 %), Ulug'nor (2,0 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Andijon shahri (25,6 %), Asaka (9,6 %), Shahrixon (7,0 %), Baliqchi (6,1 %), Jalolquduq (6,0 %), Qo'rg'ontepa (5,6 %), Andijon (5,5 %), Izboskan (5,0 %), Oltinko'l (4,8 %), Xo'jaobod (4,5 %), Bo'ston (4,5 %), Marhamat (4,1 %), Buloqboshi (3,8 %), Paxtaobod (3,7 %), Ulug'nor (2,4 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Andijon shahri (37,0 %), Asaka (7,3 %), Shahrison (7,2 %), Andijon (6,5 %), Izboskan (4,9 %), Oltinko'l (4,5 %), Xo'jaobod (4,4 %), Qo'rg'ontepa (4,3 %), Baliqchi (4,3 %), Marhamat (4,1 %), Jalolquduq (3,9 %), Paxtaobod (3,7 %), Buloqboshi (2,6 %), Ulug'nor (1,7 %) Bo'ston (1,6 %) tumanlari va Xonobod shahri (2,0 %) hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi


(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon shahri (29,3 %), Asaka (19,8 %), Bo'ston (13,6 %), Qo'rg'on tepa (8,9 %), Andijon (5,9 %), Shahrixon (4,9 %), Buloqboshi (4,0 %), Oltinko'l (3,6 %), Izboskan (2,5 %), Xonobod shahri (2,0 %), Jalolquduq (2,0 %), Baliqchi (1,7 %), Paxtaobod (1,2 %), Xo'jaobod (0,5 %) va Ulug'nor (0,1 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (National Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan). The header includes the national emblem, language options (O'zbek, Russian, English), and navigation links. The main content area is titled "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". A dropdown menu is open, showing options: "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". The "KTYaDR ma'lumotlari" option is selected. Below the menu, a form is visible with fields for "STIR kodini kiriting" (Enter STIR code) and "Rasmdagi kodni kiriting" (Enter code from image). A "Qidiruv" (Search) button is present. The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories, and the right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" (Useful Information).

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.:74 228-29-74